

“Mutaxassis chiqaruvchi” kafedralarning sifat guruhi darslari

2019 yil 16 oktyabr kuni institutimizning quyidagi kafedralarida “Sifat guruhi” ish rejasiga asosan professor-o‘qituvchilar tayyorgarlik taqdimotlari darslarini o‘tkazishdi: Yerdan foydalanish kafedrasida katta o‘qituvchisi Sharipov S.R.ning kalendar rejasiga binoan “Yer munosabatlarini tartibga solish” fanidan 3 maruza mashg‘ulotga, assistent Abduvaitov X. ning kalendar rejasiga binoan “Yer tuzishni loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimi” fanidan 6 amaliy darsiga, stajyor o‘qituvchisi Umarova Sh. ning kalendar rejasiga binoan “YEMDTS” fanidan amaliy mashg‘ulotga tayyorgarlik taqdimotlari tinglandi va professor-o‘qituvchilar tomonidan tahlil qilindi. Geodeziya geoinformatika kafedrasida katta o‘qituvchisi S. Abduraxmonovning kalendar rejasiga asosan «YERB» fakulteti 5410700-Yerdan foydalanish va yer kadastri ta’lim yo‘nalishi uchun “Kartografiya” fani bo‘yicha 7-ma’ruza mashg‘ulotiga tayyorgarlik taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi. Shunday “Sifat guruhi” ish rejasidagi taqdimot darslari “Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlardan foydalanish”, Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish hamda “Ekologiya va suv resurslaridan foydalanish kafedralarida ham o‘tkazildi.



“O‘qitishning texnik vositalari” bo‘limi boshlig‘i M. Tosheva axboroti